

BLINGVIZM VA UNING TURLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10684244>

G.M.Axmadjonova

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada blingvizm va uning turlari, ikki tilli bo'lib shakllanishning o'ziga hos xususiyatlari, ikkinchi tilni o'rganish yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar

Bilingvizm turlari, ikkitillilik, koordinativ, sub-koordinativ, aralash blingvizm.

Bilingvizm lotincha so'z bo'lib, "bi" – ikki, "lingua" – til, ya'ni ikki tillilik ma'nosini bildiradi. Bilingvistlar ikkinchi tilni xuddi o'z ona tilidek mukammal bilgan va so'zlasha oladigan shaxslardir. Bolaligidan ikki tilda bemalol muloqot qila olgan kishilarni ham bilingvistlar deb ataymiz, aslida ham bu atama ko'proq ikki tilli muhitda yashash natijasida shakllangan bilingvizmni ifodalaydi. Shu sababdan ham bilingvizmni avvalo sun'iy va tabiiy ko'rinishlarga ajratib olamiz.

1. Sun'iy bilingvizmda inson hayotining ma'lum bosqichiga kelib ikkinchi til qo'shiladi va xuddi ona tilidek o'zlashtiriladi.

2. Tabiiy bilingvist kishi esa erta yoshlaridanoq ikkita tilni birdek o'zlashtirib boradi.

Muhit ta'sirida shakllangan bilingvizm tushunchasi ham ikkiga bo'linishini eslatib o'tish kerak:

1. Individual bilingvistlar – oilaviy sharoit yoki shaxsiy xohish asosida ikki tillilik bilan ulg'aygan kishilar.

2. Ijtimoiy bilingvistlar – mamlakatdagi mavjud vaziyat yoki an'analar ta'sirida ikkita tilni bir xil o'zlashtirgan kishilar.

Individual bilingvistlar ota-otasi ikki xil tilda gaplashadigan oilada ulg'ayish natijasida har ikki tilni birdek o'zlashtiradi. Bunda ota-ona ikki millat egasi bo'lishi shart emas. Biror chet tilini mukammal bilgan insonlar bemalol farzandlarini ikki tilli qilib tarbiyalay olishi mumkin.

Ijtimoiy bilingvizm esa mamlakatda birdan ortiq davlat tili mavjud, tarixan biror davlatning mustamlakasi yoki vassali bo'lgan jamiyatlarda shakllanadi. Asosan, Yevropa davlatlari orasida bu hol ko'proq kuzatiladi. Masalan,

Shveysariyada 4 ta rasmiy davlat tili mavjud bo‘lib, bunday sharoitda insonlar kamida ikkita tilni birdek o‘zlashtirishadi.

Ikkita tilni inson qay darajada o‘zlashtirishiga ko‘ra bilingvizm yana 3 turga bo‘linadi:

1. Koordinativ yoki muvozanatlashgan bilingvizm. Bunda inson ikki tilni alohida kontekstda o‘zlashtiradi. Bunday odamlar miyasida ikkala til uchun alohida so‘z boyligi, alohida grammatik tushunchalar shakllangan bo‘ladi. So‘zlashganda ikki tilning tushunchalari bir-biri bilan aralashib ketmaydi.

2. Sub-koordinativ yoki muvozanatlashmagan bilingvizm. Bunda birinchi til ikkinchisiga qaraganda ustunlikka ega bo‘ladi. Ya’ni ikkinchi til ona tili orqali o‘zlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, ikkinchi tilda biror so‘zni eshitganda shu so‘zning ona tilidagi ekvivalenti birdan xayolga keladi.

3. Aralash bilingvizm. Bunday bilingvistlar ikki tilni bir kontekst ichida tushunib, qo‘llab keta oladi. Bunday kishilarning miyasi qaysi tildan foydalanayotgani haqida o‘ziga hisob berib o‘tirmaydi. Odatda aralash bilingvizm oilada, ikki tilda so‘zlashuvchi ota-ona sababli go‘daklik paytidayoq rivojlanadi.

Avvallari kichikligidan ikki tilli bo‘lib ulg‘aygan kishilar uchun uchinchi tilni o‘rganish murakkablik tug‘diradi, deb hisoblangan. Bu haqda psixolog Ellen Bialistik tadqiqotidan bilishimiz mumkin. Tadqiqot natijasiga [ko‘ra](#), bir tilda gaplashadigan bolalarning lug‘at boyligi ikki tilda gaplashadiganlarnikiga nisbatan yaxshiroq bo‘lgan, shuningdek, tilga oid topshiriqlarni ham bir tilli bolalar yaxshiroq bajargan. Ammo bu tadqiqot bir necha yildan so‘ng katta yoshlilar o‘rtasida takror o‘tkazilganda, bilingvistlar bir tilli kishilarga nisbatan yaxshiroq natija ko‘rsatgan. Gap shundaki, ikki tilni o‘zlashtirish jarayonida bolalarda bir tilli tengdoshlariga nisbatan kechikishlar kuzatilsa-da, yillar o‘tishi bilan bu kechikish oldinlab ketishga almashinishi mumkin. Demak, ikki tilli bo‘lish har qanday vaziyatda ham sizga bir qancha ustunliklar beradi.

Nafaqat ikki tilli kishi, balki umuman barcha chet tili o‘rganuvchilarda uchraydigan noqulay va qiziqarli holat sifatida kerak vaqtda biror so‘z tilning uchida “aylanib-aylanib, tashqariga chiqa olmasligini” aytishimiz mumkin. Maqolani o‘qish jarayonida ehtimol kelajakda farzandlaringizni ikki tilli qilib tarbiyalash yoki o‘zingizda bilingvist bo‘lish istagi tug‘ilgan bo‘lishi mumkin. Ha, buni shakllantirish mumkin. Xo‘sh, qanday qilib?

1. Ikki tilda so‘zlashadigan oilada ulg‘ayish. Bu bolalaringizga nisbatan qo‘llanadigan eng samarali usul sanaladi.

2. Ona tilingizdan farqlanadigan tilga ega chet davlatlarga o‘qish/ishlash/yashash uchun ko‘chib borish. Bu sharoitda nafaqat o‘zingiz, balki bolalaringizda ham ikki tillilik shakllantirilishi mumkin.

3. Ikkinchi tilni o‘rganishga shaxsiy ishtiyoq mavjudligi. Til o‘rganish shunchaki zavqli jarayon emas, u o‘ziga xos e‘tibor va kuch talab qiladigan kognitiv jarayon hisoblanadi. Aqliy mehnatga qiziqadiganlar uchun til o‘rganish chinakamiga zavqli mehnat bo‘lishi mumkin.

4. Diniy motiv tufayli. Diniy ta‘lim olish uchun ikkinchi tilni o‘rganish holatiga asrlar davomida guvoh bo‘lib kelyapmiz. Bunda ham ikkinchi tilni o‘rganish ham oilada, ham insonning o‘z xohishiga ko‘ra amalga oshishi mumkin.

Xulosa

Tadqiqotchi [Yekaterina Protasova](#) ko‘plab tadqiqotlarga ko‘ra bolaligidan bilingvist bo‘lib shakllangan kishilarda maxsus aqliy faoliyatga moyillik, o‘zgaruvchan vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, tafakkur shakllanishi ertaroq va yaxshiroq yuz berishini ta‘kidlaydi. Ajoyib xulosa, shunday emasmi? Demak, ikki tilli bo‘lishga urinish miyani chiniqtiradigan jarayon ekan. Shuningdek, shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda til bilish ko‘plab ezgu imkoniyatlar eshigi uchun kalit bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [https://daryo.uz/2019/07/16/ikki-tilni -birdan -bilish -rostdan-foydalimi-bilingvizm-hodisasi-haqida/](https://daryo.uz/2019/07/16/ikki-tilni-birdan-bilish-rostdan-foydalimi-bilingvizm-hodisasi-haqida/)

2. O‘z ME. Birinchi jild .Toshkent 2000 yil

3. Amaliy psixolog Vedmesh N.A. "PsychoMed" tibbiy-psixologik markazi spikeri

4. Barinova .I.A. Nesterova O.A. "Ikki tilli til shaxsining ba‘zi xususiyatlari haqida" // Filologiya fanlari. Nazariya va amaliyotga oid savollar .T: Diplom , 2015. No 4 .1-qism

5. Irina Makarova „Ikki tillilik nima“?

6. <https://sinaps.uz/maqola/8353/>

studysmarter.us/explanations/english/international-english/bilingualism
iq.hse.ru/news/226168618.html

englex.ru/why-is-it-important-to-learn-2-languages

postnauka.ru/faq/67660

postnauka.ru/video/45963

